HARBIY XIZMATCHILAR OILALARIDA UZLUKSIZ MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK TIZIMI

Kalandarov Xudayor Iskandarovich

Mudofaa vazirligi toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik

xudayoriskandarovich74@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tezisda harbiy xizmatchilar oilalarida farzandlarning uzluksiz ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishning pedagogik xususiyatlari yoritilgan. O‘ziga xos harbiy sharoitlarda, xususan, doimiy rotatsiya va xizmat safarlari davrida bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta’minlashda “Ta’lim muassasasi – Oila – Harbiy qism” hamkorligining amaliy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz ruhida, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va yuksak vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan tarbiyalash uchun maktab va harbiy qism o‘rtasida uzluksiz pedagogik integratsiyani shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy oila, ma’naviy-axloqiy tarbiya, uzluksiz pedagogik tizim, ijtimoiy moslashuv, “Ta’lim muassasasi – Oila – Harbiy qism” hamkorligi, rotatsiya, vatanparvarlik, qadriyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ОРГАНИЗАЦИИ НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В СЕМЬЯХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Каландаров Худаёр Искандарович

Начальник управления воспитательной и идеологической работы Командования войск охраны категорированных объектов Министерства обороны, полковник

Аннотация: В данных тезисах рассматриваются педагогические особенности организации непрерывного духовно-нравственного воспитания детей в семьях военнослужащих. Научно проанализированы механизмы

сотрудничества «Образовательное учреждение – Семья – Воинская часть» в обеспечении социально-психологической адаптации детей в специфических военных условиях, в частности, в период постоянной ротации и служебных командировок. Разработаны научно-практические предложения по формированию непрерывной педагогической интеграции между школой и воинской частью для воспитания молодого поколения в духе национальных ценностей, преданности идеям независимости и высоких патриотических чувств.

Ключевые слова: семья военнослужащего, духовно-нравственное воспитание, непрерывная педагогическая система, социальная адаптация, сотрудничество «Образовательное учреждение – Семья – Воинская часть», ротация, патриотизм, ценности.

THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF ORGANIZING CONTINUOUS SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN MILITARY FAMILIES

Kalandarov Khudayor Iskandarovich

Head of the Department of Educational and Ideological Work, Command of the Troops for the Protection of Categorized Objects of the Ministry of Defense, Colonel

Abstract: This thesis highlights the pedagogical features of organizing continuous spiritual and moral education of children in military families. The practical mechanisms of the “Educational Institution – Family – Military Unit” cooperation in ensuring the socio-psychological adaptation of children under specific military conditions, particularly during constant rotation and business trips, are scientifically analyzed. Scientific and practical proposals have been developed for the formation of continuous pedagogical integration between the school and the military unit in order to educate the younger generation in the spirit of national values, devotion to the ideas of independence, and high patriotic feelings.

Keywords: military family, spiritual and moral education, continuous pedagogical system, social adaptation, “Educational Institution – Family – Military Unit” cooperation, rotation, patriotism, values.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq barkamol avlod tarbiyasi, yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini milliy qadriyatlarimiz asosida shakllantirish davlat ijtimoiy siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, o‘z xalqiga va mustaqillik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Bu tarbiyaviy jarayonda jamiyatning tayanch ustuni bo‘lgan oila instituti, xususan, Vatan himoyasi yo‘lida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar oilalarining o‘rni mutlaqo beqiyosdir.

Harbiy xizmatchilar oilalari o‘ziga xos ijtimoiy-pedagogik muhitga ega bo‘lib, ulardagi tarbiyaviy jarayonlar qat’iy intizom, yuksak mas’uliyat va Vatanga muhabbat kabi oliyjanob tuyg‘ular bilan bevosita sug‘orilgan bo‘ladi. Ota-onaning harbiy xizmatdagi faoliyati, ularning Vatan oldidagi burchini o‘tashi farzandlar qalbida milliy iftixor tuyg‘ularini tabiiy ravishda shakllantiradi. Biroq, harbiy xizmatning murakkab va o‘ziga xos xususiyatlari oiladagi ta’lim-tarbiya jarayonini faqatgina an’anaviy yondashuvlar bilan emas, balki maxsus ishlab chiqilgan uzluksiz pedagogik tizim asosida tashkil etishni taqozo qiladi.

Sof pedagogik nuqtai nazardan olib qaraganda, harbiy xizmatchilar farzandlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasida uzluksizlikni ta’minlash qator o‘ziga xos masalalarni keltirib chiqaradi. Xususan, xizmat taqozosi bilan turli hududlarga doimiy ko‘chishlar (rotatsiya) oqibatida farzandlarning yashash va ta’lim olish joyi tez-tez o‘zgarib turadi. O‘quvchining bitta umumta'lim maktabidan boshqa bir ta’lim muassasasiga o‘tishi, yangi ustozlar va tengdoshlar jamoasiga moslashishi uning ruhiyatiga, darslarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga va axloqiy-emotsional holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tranzit (o‘tish) davrida bolada paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’naviy va psixologik bo‘shliqlarning oldini olish uchun maktab va oila

o‘rtasidagi ta’lim-tarbiya jarayonida mutlaqo uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik talab etiladi.

Pedagogika fanida ma’naviy-axloqiy tarbiya insonning butun hayoti davomida shakllanib boradigan, doimiy e'tibor talab etadigan murakkab dinamik jarayon sifatida e’tirof etiladi. Agar bola maktab o‘zgartirish jarayonida pedagogik e'tibordan chetda qolsa, uning tarbiyasida o‘ziga ishonchsizlik yoki ijtimoiy passivlik namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli, harbiy oilalarda farzandlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini barqarorlashtirish faqatgina oilaning ichki masalasi bo‘lib qolmasdan, balki aniq tashkillashtirilgan pedagogik hamkorlikni talab etadi.

Bu o‘rinda asosiy e’tibor yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, ularning ongini yot g‘oyalardan asrash hamda mustaqillik g‘oyalariga sadoqatni mustahkamlashga qaratilishi lozim. Ushbu maqsadlarga erishish uchun “Ta’lim muassasasi – Oila – Harbiy qism”ning sof pedagogik hamkorlik tizimini yaratish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Maktab ma’muriyati, sinf rahbari hamda harbiy qismdagi xotin-qizlar kengashlari va psixologlarining o‘zaro hamkorligi orqali bolaning yangi ta'lim muhitiga moslashuvini yengillashtirish, darslardan bo‘sh vaqtini turli to‘garak va kitobxonlik tadbirlari orqali mazmunli tashkil etish harbiy oilalarda uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mustahkam pedagogik poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilar oilalarida uzluksiz ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning pedagogik tizimi o‘zining mohiyatiga ko‘ra o‘ta murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Pedagogika fanida oila tarbiyaning birlamchi va eng muhim bo‘g‘ini sifatida e’tirof etiladi. Harbiy oilalarda bu bo‘g‘in ota-onaning kasbiy xususiyatlaridan kelib chiqib, yuksak intizom, mas’uliyat, vatanparvarlik va halollik tamoyillari asosida faoliyat ko‘rsatadi. Ota yoki onaning Vatan himoyachisi ekanligi, ularning xizmat libosi, qat'iy kun tartibi, sadoqati va ijro intizomi bolada milliy g‘urur hamda mustaqillik g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiruvchi eng kuchli jonli namuna – vizual pedagogik vositadir. Biroq, zamonaviy axborot makoni va harbiylar hayotidagi doimiy rotatsiya (ko‘chishlar) sharoitida faqatgina

oilaning ichki tarbiyaviy potensiali bolaning ma’naviy dunyoqarashini barqaror saqlash va turli axborot xurujlaridan himoya qilish uchun to‘laqonli yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Aynan shu nuqtada, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning uzluksizligini ta’minlash maqsadida “Ta’lim muassasasi – Oila – Harbiy qism” yaxlit pedagogik hamkorlik tizimi ishga tushishi talab etiladi. Ushbu tizimning bosh pedagogik maqsadi – yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat, yot g‘oyalarga nisbatan qat'iy mafkuraviy immunitet va yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonda ta’lim muassasasi bolaga ilmiy va axloqiy bilimlarni tizimli ravishda bersa, harbiy qism o‘zining ijtimoiy-tarbiyaviy tuzilmalari (psixologlar va xotin-qizlar kengashlari) orqali oiladagi ma’naviy iqlimni barqarorlashtirishga yordam beradi. Bu hamkorlik hech qanday ma’muriy buyruqbozlikka emas, balki sof insonparvarlik, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro ishonch va tarbiyaviy maslahatgo‘ylik tamoyillariga asoslanadi.

Ushbu pedagogik tizimning amaliyotdagi eng muhim vazifalaridan biri harbiy xizmatchilarning boshqa hududlarga ko‘chishi davrida bolada yuzaga keladigan tarbiyaviy uzilishlarning (bo‘shliqlarning) oldini olishdir. O‘quvchining yangi maktabga kelishi uning ijtimoiy moslashuvi (sotsializatsiyasi) uchun eng murakkab tranzit davr hisoblanadi. Bu bosqichda sinf rahbari, maktab psixologi va harbiy qismning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo‘yicha mas'ullari o‘rtasida uzviy axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Sinf rahbari bolaning darslarni o‘zlashtirishi, xulq-atvori va qiziqishlarini kuzatib borsa, harbiy qism vakillari ota-onaga farzandining yangi muhitga tezroq moslashishi uchun zaruriy pedagogik tavsiyalarni berib boradi. Shuningdek, o‘quvchining darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, uni fan, sport to‘garaklariga, ayniqsa, kitobxonlik va badiiy havaskorlik to‘garaklariga faol jalb qilish mazkur tizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunining o‘zagi sifatida o‘quvchi-yoshlarda mustaqillik g‘oyalariga chinakam sadoqatni shakllantirish, ularni ulug‘

ajdodlarimizning milliy an’ana va urf-odatlariga hurmat ruhida kamol toptirish turadi. “Ta’lim muassasasi – Oila – Harbiy qism” pedagogik tizimi doirasida harbiy xizmatchilarning maktablardagi “Tarbiya” va boshqa ma'naviyat soatlarida ijtimoiy faol ota-ona sifatida ishtirok etishi kutilgan natijani beradi. Ularning o‘z namunali axloqi, halol mehnati va Vatan oldidagi burchini qanday ado etayotgani haqida o‘rtoqlashishi o‘quvchilar uchun ulkan ibrat maktabiga aylanadi. Bunday chuqur o‘ylangan pedagogik yondashuv bolani nafaqat o‘z oilasi, balki butun jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur anglaydigan, mustahkam irodali shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi. Natijada, harbiy oiladagi ma’naviy-axloqiy tarbiya uzluksizligi to‘laqonli ta’minlanib, ta’lim va tarbiya jarayoni buzilmas yaxlit pedagogik halqaga aylanadi.

Harbiy xizmatning yana bir o‘ziga xos murakkab xususiyati – ota-onalarning uzoq muddatli dala-o‘quv mashg‘ulotlarida yoki xizmat safarlarida bo‘lishidir. Bu davrda oilada qolgan farzandning ruhiyatida ota yoki onasini sog‘inish va hissiy yetishmovchilik holatlari kuzatilishi tabiiy pedagogik jarayondir. Aynan mana shu vaziyatda “Ta’lim muassasasi – Oila – Harbiy qism” hamkorligining amaliy ahamiyati va samaradorligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Sinf rahbari bolaga nisbatan ko‘proq pedagogik e’tibor qaratishi, uning emotsional holatini to‘g‘ri baholashi va darslardagi faolligini ijobiy rag‘batlantirib borishi zarur. O‘z navbatida, harbiy qismning ijtimoiy-pedagogik tuzilmalari ota (yoki ona) xizmat safarida bo‘lgan vaqtda oiladagi ma’naviy muhitni barqaror ushlab turish uchun ruhiy maslahatlar va amaliy ko‘mak berishi uzluksiz tarbiyaning muhim kafolati hisoblanadi.

Tizimning mazmunli-faoliyat yo‘nalishida o‘quvchilarga xalqimizning shonli o‘tmishi hamda buyuk sarkardalarimiz – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimizning qahramonliklari misolida vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish markaziy o‘rinni egallaydi. Tashkiliy-pedagogik hamkorlik doirasida harbiy qismlar va maktablar tomonidan yurtimizdagi qadimiy obidalar, Temuriylar tarixi yoki Qurolli Kuchlar davlat muzeylariga birgalikda tashkil etiladigan o‘quv-ekskursiyalari bolaning nazariy bilimlarini

vizual-hissiy idrok bilan boyitadi. Bunday chuqur o‘ylangan pedagogik yondashuv bolada nafaqat milliy iftixor, balki qat’iyat, adolat, jasorat va to‘g‘rilik kabi yuksak axloqiy fazilatlarning chuqur ildiz otishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, uzluksiz pedagogik ta’sir faqatgina maktab va oila doirasida chegaralanib qolmasdan, bolaning intellektual salohiyatini yuzaga chiqaruvchi qo‘shimcha muhitlarni ham o‘z ichiga oladi. Harbiy xizmatchilar farzandlarining bo‘sh vaqtini uzluksiz va mazmunli tashkil etish, ularni ijodiy, sport va innovatsion to‘garaklarga keng jalb qilish orqali turli yot g‘oyalar hamda zararli axborotlar ta’siriga tushib qolishining to‘liq oldi olinadi. Ushbu integratsiyalashgan pedagogik mexanizmlar harbiy oila farzandining har qanday o‘zgaruvchan sharoitda ham mustahkam ma’naviy immunitetini saqlab qolish va uni jamiyatning faol, ongli a’zosi sifatida voyaga yetkazishga to‘laqonli xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida ta'kidlash joizki, harbiy xizmatchilar oilalarida farzandlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi yakkalangan holatda emas, balki uzluksiz, dinamik va o‘zaro integratsiyalashgan pedagogik tizim asosida tashkil etilishi bugungi kunning muhim talabidir. Harbiy xizmatning o‘ziga xos murakkab sharoitlarida, ayniqsa doimiy rotatsiya va xizmat safarlari davrida, “Ta’lim muassasasi – Oila – Harbiy qism” hamkorligi yoshlarda milliy qadriyatlarni mustahkamlash, ularni turli yot g‘oyalar ta'siridan asrash va yangi ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtirishning eng samarali mexanizmi hisoblanadi.

Ushbu tashkiliy-pedagogik tizimni amaliyotda yanada takomillashtirish va tarbiyaviy uzluksizlikni ta'minlash maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

“Qo‘shma pedagogik maslahat kengashlari”ni tashkil etish: Hududiy umumta’lim maktablari va harbiy qismlar o‘rtasida o‘quvchilarning ma’naviy-psixologik holatini muntazam kuzatib borish uchun maktab psixologi, sinf rahbari hamda harbiy qismdagi xotin-qizlar kengashi vakillaridan iborat doimiy ishlovchi pedagogik platforma yaratish.

Moslashuv dasturlarini joriy qilish: Rotatsiya natijasida yangi hududga ko‘chib kelgan harbiylarning farzandlarini yangi maktab muhitiga va jamoaga og‘riqsiz moslashtirish maqsadida ta’lim muassasalarida maxsus “Pedagogik moslashuv va ma'naviy qo‘llab-quvvatlash” amaliyotini joriy etish.

Vizual va amaliy tarbiya vositalarini kengaytirish: O‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda harbiy qism va maktab ma'muriyati hamkorligida muntazam ravishda Temuriylar tarixi, buyuk sarkardalarimiz merosini o‘rganishga qaratilgan o‘quv-ekskursiyalari, kitobxonlik va harbiy-vatanparvarlik to‘garaklari tarmog‘ini tizimli rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, mazkur pedagogik mexanizmlarning to‘laqonli va uzluksiz ishlashi harbiy oilalar farzandlarini shunchaki bilimli emas, balki mustaqillik g‘oyalariga sadoqatli, qat'iy irodali, yuksak ma'naviyatga ega bo‘lgan va Vatan taqdiri uchun o‘zida mas'uliyat seza oladigan komil insonlar etib tarbiyalashda eng mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 590-son “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022.

G‘afurov B.T. Harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalashning ijtimoiy falsafiy omillari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro: BuxDU, 2024. – 56 b.

Jalolova M.O. Harbiylar oilasida rollar taqsimotining ijtimoiy-pedagogik o‘ziga xosligi. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: TDPU, 2024. – 52 b.

Jabarova L.A. Harbiy xizmatchilar oilalarida ajralishning pedagogik xususiyatlari: sabablari va oqibatlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O‘zMU, 2024. – 50 b.

Shoumarov G.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. 2-nashr. – Toshkent: Ibn Sino, 1994. – 120 b.

Alyoshina Yu.E., Gozman L.Ya., Dubovskaya Ye.M. Sotsialno-psixologicheskiye metodiki issledovaniya suprujeskix otnosheniy. – Moskva: Izd-vo MGU, 1987. – 120 s.

Volkova A.N. Opyt issledovaniya suprujeskix konfliktov // Voprosy psixologii. – 1990. – № 2. – S. 35-42.

Olson D.H., Portner J., Lavee Y. FACES-III: Family Adaptability and Cohesion Evaluation Scales. – St. Paul, MN: University of Minnesota, 1985.

Bem S.L. The measurement of psychological androgyny // Journal of Consulting and Clinical Psychology. – 1974. – Vol. 42. – P. 155-162.